

7-Mavzu. Montaj ishlari uchun xujjatlar, ishlab chiqarishni tayyorlash va jixozlar montaji maydonini tashkil qilish.

Reja:

7.1. Montaj ishlari uchun xujjatlar.

7.2. Ishlab chiqarishni tayyorlash va jixozlarni montaj texnologiyasini oshirish yo'llari.

7.3. Montaj maydonini tashkil qilish.

7.1. Montaj ishlari uchun xujjatlar

Jixozlarni, quvurlarni va konstruksiyalarni montaji, shuningdek bajarilgan ishlarni xisobi texnik, normativ, loyixa smetali, va texnologik montaj xamda ishlab chiqarishni bajarish xujjatlari asosida amalga oshiriladi.

Texnik xujjatga jixozlarni ishlab chiqargan zavodlarni xujjatlari kiradi, ularni zakazchi montaj tashkilotiga ishloarni bajarish uchun beradi.

Qurilishni tashkil qilish loyixasi (QTQL), bunda mexanomontaj ishlari va mashina-jixozlarni montaji amalga oshiriladi.

Ishni bajarish loyixasi (IBL), u tushintirish qismidan, grafik qismdan va izoxlardan tashkil topgan bo'lib unga montaj ishlarini bajarishda xisobga olinmagan qo'shimcha ishlar smetasi, montaj vositalarini ishchi chizmalari xamda obyektning montaj-texnik pasporti kiradi.

Ishni bajarishni texnologik kartasi. Mashina va agregatlarni montaji ishlab chiqargan zavodlarni ishchi chizmalari va instruksiyalari asosida amalga oshiriladi.

Texnologik kartada mashinani (obyektning, ishni) nomi va xarakteristikasi; ishning hajmi; montaj uzellarini soni va massasi; smetaviy baxosi va ish hajmi; brigada va ularning soni; bajarilishi lozim bo'lgan ish vaqti va muddati; montaj maydonini plani; ishchilarning xarakat marshrutlari va mexanizmlarning xarakati yo'nalishi; obyektning qurilish qismi va jixozlarning qabul qilish tartibi; jixoz va konstruksiyalarning montaj uchun raskonservatsiya qilishga talablar; jixozlar va konstruksiyalarning joylashtirish va

rostdash; vositalar, asboblari, materiallar va montaj mexanizmlariga talablar; salt chiniqtirish tartibi; iqtisodiy ko'rsatkichlar; texnika xavfsizligi qoidalari va boshqalar. IBLni loyixalash texnologik institutlari yoki montajni amalga oshirish tashkilotlari bajaradilar.

Bunda ishlarni bajarishni texnologik sxemalari, ishlarni bajarish jurnallari, ishlab chiqarish xujjatlari ko'zda tutiladi.

7.2. Ishlab chiqarishni tayyorlash va jixozlarni montaj texnologiyasini oshirish yo'llari

Ishlab chiqarishni tayyorlash deganda, bir-biriga bog'liq bo'lgan tashkiliy, texnik, texnologik, rejali-iqtisodiy va moliyaviy xujjatlar asosida ma'lum muddatda va ma'lum texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha bajariluvchi ishlar tushiniladi.

Bunda:

- montaj ishlari uchun xujjatlar yig'iladi va ko'rib chiqiladi;
- quvurlar va metallkonstruksiylar uchun qaydnomalar tuziladi;
- montaj vositalari, tayyorlamalar, metallkonstruksiylar chizmalari;
- smeta xujjatlari va bajarilishi uchun lozim bo'lgan ishlar xajmi taqqoslanadi;
- ishni bajarish sxemalari loyixani bajaruvchilar uchun beriladi;
- ishlab chiqarish ishlarini bajarish grafiklari, ularni material-texnik resurslar

Bilan ta'minlash yo'llari;

- obyektning qurilish qismi va montaj uchun jixozlar qabul qilinadi;
- montaj ishlarini bajaruvchi brigadalar bilan shartnomalar tuziladi;
- montaj ishlarini sifatini va geodezik xizmatini guruxlari tasdiqlanadi va

boshqalar.

Bundan tashqari montaj ishlab chiqarishini tashkil qilishda mashina-jixozlarni montaj zonasiga yetkazib berish, ularni fundamentga maxkamlash, montajgacha kupirikli kranlarni ishga tushirish, energiya bilan ta'minlash va boshqa muxim ishlar amoga oshirilishi kerak.


7.3. Montaj maydonini tashkil qilish

Jixozlarni montaj qilish vaqtida qurilishni bosh planida montaj maydonini tashkil qilish ko'zda tutiladi.

Bosh planda:

- doyimiy va vaqtinchalik obyektlar qurilishi ;
- temir va avtomobil yo'llari;
- montaj oraliqlari va sexlaga kirish yo'llari;
- sexdan tashqari quvurlar va elektr uzatkichlar;
- obyekt oldidagi ombor;
- mashina-jixozlarni yig'ish joylari;
- madaniy-maishiy xonalar;
- montajda ishlatiluvchi mashinalar va mexanizmlar;
- kiruvchi yo'llar orqali uzatilishi lozim bo'lgan materiallar xajmi va

boshqalar keltirilgan bo'lishi kerak.



Montaj ishlari uchun xujjatlar, ishlab chiqarishni tayyorlash va jixozlar montaji maydonini tashkil qilish.

Rasm. 7.1. Montaj uchastkasini sxemasi:

1 - tualet; 2 – yuvinish xonasi; 3 - 6 - brigadalar uchun xonalar, dam olish va ovqatlanish xonalari; 7 – asbobsozlik ustaxonasi; 8 – asboblarning omborxonasi; 9, 10 – proraib xonasi, kontora; 11 – materiallarni joylashtirish maydoni; 12 – Gazli ballonlarni saqlash omborxonasi.

Qurilayotgan korxonada montaj tashkiloti uchun maxsus maydon ajratiladi (rasm 7.1).

Elektrodvigatellarni, quvurlarni detallarini, nazorat-o'lchash apparatlarini saqlash uchun o'lchami 6×12 m va 12×36 m. bo'lgan yig'ib-sochiluvchi omborxonaga ko'zda tutiladi.

Nazorat savollari

1. Servisda qurilishni tashkil qilishni loyixasini bajarish bosqichlari.
2. Servisda ishlab chiqarish loyixasini tartibi.
3. Texnologik montaj deganda nimani tushunasiz?
4. Yangidan qurilayotgan korxonaga uchun montaj uchastkasini sxemasini chizing.